

XAMSA AN'ANASI VA ALISHER NAVOIY "XAMSA" SINING O'ZIGA XOSLIGI

Abdurashidova Sevinch Alisher qizi,

Toshkent amaliy fanlar universiteti

4-bosqich talabasi

E-mail: abdurashidovasevinch227@gmail.com

93.188.03.45

Ilmiy rahbar: Djumayeva Sofiya

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sharq adabiyotida "Xamsa" an'anasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda Alisher Navoiy "Xamsa"sining badiiy, falsafiy va g'oyaviy o'ziga xos jihatlari keng tahlil etilgan. Shuningdek, unda Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy asarlari bilan Navoiy "Xamsa"si qiyosiy tarzda o'rganilib, o'zbek adabiyoti tarixida turkiy tilda yaratilgan birinchi "Xamsa"ning ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Xamsa, an'ana, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, doston, milliylik, ma'naviyat.

Аннотация: В данной статье подробно анализируются этапы становления и развития традиции "хамсе" в восточной литературе, а также художественные, философские и идейные особенности "хамсы" Алишера Навои. В статье сравнительно исследуется Навоийская "Хамса" с произведениями Низами Гянджеви, Хусрава Дехлави и Абдурахмана Джами и освещается значение первой в истории узбекской литературы "Хамсы", созданной на тюркском языке.

Ключевые слова: Хамса, традиция, Низами Гянджеви, Хусрав Дехлави, Абдурахман Джами, Алишер Навои, эпос, национальность, духовность.

Annotation: In this article, the formation, stages of development of the khamsa tradition and artistic, philosophical and ideological peculiarities of Alisher Navoi's Khamsa are widely analyzed in Eastern literature. With the works of Nizami Ganjavi, Khusrav Dehlavi and Abdurahman Jami, Navoi "Khamsa" was studied in a comparative way, highlighting the importance of the first "Khamsa" created in the Turkic language in the history of Uzbek literature.

Key words: Khamsa, tradition, Nizami Ganjavi, Khusrav Dehlavi, Abdurahman Jami, Alisher Navoi, epic, nationalism, spirituality.

Adabiyot - bu xalq ruhining so'zdagi aksidir. Har bir davr o'z adabiyotida o'z zamonining ruhini, orzularini, iztiroblarini va ma'naviy izlanishlarini gavdalantiradi. O'zbek adabiyoti tarixiga nazar tashlaganda, uning yuksak cho'qqilaridan biri sifatida Alisher Navoiy nomi alohida nur bilan porlaydi. Navoiy nafaqat o'z davrining, balki

butun turkiy adabiyot olamining yo‘lboshchisiga aylangan. Ayniqsa, uning “Xamsa”si turkiy adabiyotda yangi bosqichni boshlab bergan, badiiy tafakkurda mukammallik timsoli sifatida qaraladi.

“Xamsa” so‘zi arabcha “besh” degan ma‘noni bildiradi va besh dostonidan iborat majmuani anglatadi.

“Xamsa” yozish uchun quyidagi qoidalarga amal qilish lozim bo‘ladi:

1. Besh dostonidan tashkil topmog‘i.
2. Birinchi doston, albatta, pand-nasihat ruhidagi ta‘limiy-axloqiy, falsafiy bo‘lmog‘i.
3. Ikkinchi doston Xusrav va Shirin mojarolariga bag‘ishlanmog‘i.
4. Uchinchi doston Layli va Majnun muhabbatini mavzu qilib olmog‘i.
5. To‘rtinchi doston Bahrom, beshinchi doston Iskandar haqida yozilmog‘i shart edi.

Sharq adabiyotida “Xamsa” yaratish an‘anasi qadimdan mavjud bo‘lib, bu yo‘nalishning poydevorini buyuk ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy qo‘ygan edi. U XII asrda o‘zining “Maxzan ul-asror” (Sirlar xazinasini), “Xusrav va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Haft paykar” (“Yetti go‘zal”) va “Iskandarnoma” asarlari orqali butun Sharq adabiyotiga yangi yo‘nalish olib kirdi. Keyinchalik Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy singari ijodkorlar bu an‘anani davom ettirib, uni yanada takomillashtirdilar[1:56].

Dehlaviyning 1299–1302-yillarda yozilib, Alouddin Xiljiyga bag‘ishlangan “Xamsa”si quyidagi dostonlarni o‘z ichiga oladi: “Matla‘ ul-anvor”(Nurlarning chiqish joyi), “Shirin va Xusrav”, “Majnun va Layli”, “Oynai Iskandariy”(Iskandar oyinasi), “Hasht bihisht”(Sakkiz jannat). U Nizomiy dostonlarining shakli va syujeti, obrazlar silsilasini saqlagan holda, ularni o‘ziga xos talqin etdi va yangi mazmun bilan boyitdi. Nizomiy dostonlari shoir dunyoqarashining kengligi va bilimining teranligini namoyish etsa, Xusrav Dehlaviy “Xamsa”si ruhiyat teranligi va qalb boyligini ko‘z-ko‘z qiladi. Nizomiy dostonlarida tafakkur va tuyg‘unnisbatini ko‘rsak, Xusrav Dehlaviy “Xamsa”sida inson qalbinning nozik tebranishlari va badiiyat uyg‘unligining hassos va go‘zal tasvirlariga duch kelamiz. Aynan san‘atkorona ishlanganligi uchun ham Xusrav Dehlaviy “Xamsa”si o‘zidan keyingi shoirlarga kuchli ta‘sir ko‘rsatdi, Xalafllari g‘oya va mazmunda Nizomiyga ergashsalar ham, shakl va badiiyatda Xusrav Dehlaviyga izdoshlik qildilar. Jomiyning “Bahoriston”da e‘tirof etishicha, hech kim Nizomiy “Xamsa”siga Xusrav Dehlaviydan o‘tkazib javob yozolmagan.

Abdurahmon Jomiy ham “Tuhfatul-ahror”, “Sibhatul-abror”, “Yusuf va Zulayho”, “Laylo va Majnun”, “Xiradnomayi Iskandariy” dostonlarini 1481–1485-yillar davomida, ya‘ni uzog‘i bilan besh yil davomida yozib bo‘lgan.

Nizomiy Ganjaviy bu an‘anani boshlab bergan bo‘lsa, Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy uni yuksak badiiy pog‘onaga ko‘tardilar. Ammo xamsachilik tarixida eng buyuk burilish Alisher Navoiy nomi bilan bog‘liq. U 1483–1485-yillar orasida turkiy tilda o‘z “Xamsa”sini yozdi. Shu orqali u nafaqat o‘zbek adabiyotida,

balki butun turkiy dunyoda yangi davrni boshlab berdi. Navoiy bu an'anani nafaqat davom ettirdi, balki unga milliy ruh, turkiy tafakkur va yangi falsafiy mazmun baxsh etdi. Shuning uchun ham Navoiy "Xamsa"si Sharq adabiyoti tarixida "an'anaviylik va yangilanish" uyg'unligining eng yuksak namunasi sifatida baholanadi. Alisher Navoiy bu yo'lga kirar ekan, nafaqat ustoz Jomiy izidan bordi, balki butun turkiy adabiyotning sha'nini, salohiyatini va imkoniyatini namoyish etish niyatida qalam tebratdi. U "Xamsa"ni turkiy tilda yozish orqali an'anaga yangi hayot baxsh etdi, turkiy xalq tafakkurini jahon adabiyoti miqyosida namoyon etdi. Shu tariqa Navoiy "Xamsa"si nafaqat bir ijod namunasi, balki milliy g'urur va ma'naviy uyg'unish ramzi sifatida tarixda o'chmas iz qoldirdi. Bugungi kunda "Xamsa"ni o'rganish nafaqat mumtoz adabiyot tarixiga hurmat ifodasi, balki o'zbek milliy badiiy tafakkurining ildizlarini anglash, uni zamonaviy adabiyot nazariyasi asosida tahlil qilish imkonini ham beradi.

Alisher Navoiy "Xamsa"sining yaratilish jarayoni jahon adabiyoti taraqqiyotidagi eng yorqin sahifalardan biridir. Abulqosim Firdavsiy shoh asari "Shohnoma"ni, Nizomiy Ganjaviy "Xamsa"sini 30 yil davomida, I. Gyote "Faust" tragediyasini umr bo'yi (1773–1832) yozgan bo'lsalar, Navoiy o'z "Xamsa"sining birinchi dostoni "Hayratul-abror"ga 1483-yilda kirishib, oxirgi dostoni – "Saddi Iskandariy"ni 1485-yilda yozib tugalladi va asarning oxirida butun "Xamsa"ni yozishga hammasi bo'lib umuman ikki yil vaqti ketganini qayd etdi. Navoiy "Xamsa"sining yaratilishida uning buyuk zamondoshi, ustoz Abdurahmon Jomiy bosh maslahatchi rolini o'ynagan, asar bitganda birinchi bo'lib o'qib chiqqan va unga munaqqid sifatida hammadan avval yuqori baho bergan. Lekin bundan Navoiy "Xamsa"ni yaratish masalasi bilan faqat ikki-uch yil shug'ullangan va "Xamsa" uning ikki-uch yillik ijodiy faoliyatining mevasi ekan-da, degan xulosaga kelish xato bo'lar edi. O'zbek tilida "Xamsa" yaratish uni juda erta — bolaligidan boshlab band etgan. Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonining kirish qismida o'z ulug' xamsanavis salafilariga murojaat qilib:

Kichik erkanimdan kelib qoshima,

Ulug' muddao solib boshima-

der ekan, ma'lum bo'ladiki, unda "Xamsa" yaratish muddaosi kichikligidayoq paydo bo'lgan. Buning uchun Navoiy bir umr tayyorgarlik ko'rgan, o'zidan oldin yaratilgan "Xamsa"larni qayta-qayta o'qigan, mutolaa qilganini ko'rishimiz mumkin[2:11].

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning "Xamsa"sidagi "Hayrat ul-abror" va boshqa dostonlarning ko'pgina satrlari real hayotdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat va hodisalar ta'sirida yuzaga kelgan. Navoiy garchi o'z oldiga adabiy jihatdan avvalgi "Xamsa"larga javob yozish vazifasini qo'ygan bo'lsa ham, ammo dostonlarning yuzaga kelishi real ijtimoiy-tarixiy muhit bilan bog'liq. Bu asarning g'oyaviy yo'nalishini ham shu muhit, shu davrdagi vaziyat belgilab bergan.

Navoiy “Hayrat ul-abror”ni hajriy 888-yili yoza boshlab, shu yili tugalladi. Asarning bitgan yili haqida shoir:

*Nuqtayi tarihiki, ahsan edi,
Sekkizu sekkiz yuzu seksan edi-*

deydi. Bu melodiylar hisob bilan 1483-yilga to‘g‘ri keladi. Uni Navoiyning shaxsiy kotibi Abduljamil hijriy 889-yilning rabbial-oxir oyida, melodiylar hisob bilan 1484- yil aprel oyida oqqa ko‘chirib bo‘lgan. Hayrat ul-abror Alisher Navoiy “Xamsa”sining ilk dostoni bo‘lib, mazmun-mohiyatiga ko‘ra axloqiy-didaktik ruhda yaratilgan pandnoma xarakteridagi asardir. Dostonning asosiy g‘oyasi komil inson tarbiyasi, adolat, ilm-ma‘rifat, halollik, sabr, shukur, tavozu‘ kabi yuksak fazilatlarini targ‘ib etishdan iborat. Muallif jamiyatdagi illatlar, jaholat, zulm va nodonlikni keskin tanqid qiladi va shu orqali ijtimoiy poklanish g‘oyasini ilgari suradi. Asar kompozitsion jihatdan muqaddima, maqolatlar va xotimadan iborat bo‘lib, har bir maqolotda bir axloqiy masala ochiladi, unga oid hikoya keltiriladi hamda umumiy falsafiy xulosa chiqariladi. Dostonning uslubiy xususiyati balog‘at, falsafiy mulohaza, sufiyona timsollar, Qur‘on va hadis mazmuniga ishoralar, ibratli hikoyatlar hamda hikmatli iboralar ko‘pligi bilan belgilanadi. Unda an‘anaviy qahramonlar tizimi kuchli emas, balki donishmandlik timsollari, ibratli shaxslar, ta‘limiy voqealar orqali fikr beriladi. Asarda insonning nafs tarbiyasi, ma‘naviy kamoloti, adolatli boshqaruv, xalq va hukmdor munosabatlari singari ijtimoiy-falsafiy masalalar markaziy o‘rinda turadi, bu esa dostonning fuqaroviy pafosini yanada kuchaytiradi. Til uslubi nafis, badiiy, balog‘atli bo‘lib, aruzning ramali musaddasi mahzuf bahrida yozilgan. Mazkur doston o‘zining g‘oyaviy yuksakligi, didaktik mohiyati va badiiy yetukligi bilan Navoiy ijodining eng mukammal namunalaridan biri sifatida qadrlanadi.[3:191].

Shoir 1483-yilning o‘zidayoq “Farhod va Shirin” dostonini yozishga kirishgan. Ish shu qadar tez borganki, hijriy 889-yil, melodiylar 1484-yilning boshlaridayoq doston yozib bo‘lingan. Bu asarning yozilish tarixi haqida Navoiy doston oxirida quyidagi baytni bitgan:

*Chu tarixi yilin onglay dedim tuz:
Sekkiz yuz seksan erdi dog‘i to‘qquz.*

Farhod va Shirin dostoni Alisher Navoiyning “Xamsa”sidagi sevgi-ruhiy drammatizmga boy asar bo‘lib, unda pok muhabbat, fidoyilik va insoniylik g‘oyalari ulug‘lanadi. Asar markazida Farhod va Shirin timsollarining sadoqatli muhabbati turadi, Farhodning mehnatkashligi, Vatanparvarligi, ilm va san‘atga muhabbati yuksak qadrlanadi. Doston romantik ruhda yozilgan bo‘lib, unda muhabbat faqat hissiy kechinma emas, balki ma‘naviy poklanish va komillikka eltuvchi kuch sifatida talqin etiladi. Shuningdek, asarda zulm, hiyla, hasad, nodonlik kabi illatlar qoralanadi, adolat, mardlik, sadoqat esa asosiy axloqiy mezon sifatida ko‘rsatiladi. Til va uslub jihatidan nafis, tasviriy vositalarga boy bo‘lib, tabiat manzaralari, qahramonlarning ruhiy holati

balogʻat bilan tasvirlangan. Doston aruz vaznida yozilgan va Sharq romantik epik anʻanasining eng yuksak namunalaridan biri hisoblanadi.

Shoir “Layli va Majnun” dostonining yozilish tarixini hech qayerda qayd etmagan. Abduljamil kotib dostonning koʻchirilgan yilini hijriy 889-yilning zul-qaʻda oyi, melodiyl 1484-yilning noyabr oyi deb belgilagan. Layli va Majnun dostoni Alisher Navoiyning “Xamsa”sidagi eng nozik ruhiy-psixologik asarlardan boʻlib, unda ilohiylashtirilgan pok ishq, ruhiy inqiroz va tasavvufiy maʼnaviy kamolot gʻoyalari yetakchilik qiladi. Asar markazida Majnun Layliga boʻlgan cheksiz muhabbat turadi va bu muhabbat dunyoviy istakdan yuqoriga koʻtarilib, ruhiy poklanish hamda maʼrifat yoʻliga aylanadi. Doston individual psixologik kechinmalar, talvasa, hijron, vafosizlikka chidam, sabr va ruhiy fidoyilik obrazlari bilan yuksak badiiy darajada yoritilgan. Unda jamiyat bosimi, qadriyatlar toʻqnashuvi, muhabbat va taqdir tragizmi falsafiy talqin etiladi. Til jihatidan nafis, lirizm kuchli, tashbeh, istiora va majoziy timsollar keng qoʻllanilgan boʻlib, asar Sharq adabiyotidagi eng chuqur ishq-sufiy epik namunalaridan biri sanaladi.

“Saddi Iskandariy” dostonidan shu narsa maʼlumki, toʻrtinchi doston – “Sabʼai sayyor”ni yozishga kirishish vaqtida Navoiy juda charchagan. Shuning uchun u maʼlum muddat yozish ishini toʻxtatib, bir oz dam olmoqchi boʻlgan va shunday qilgan ham. Lekin bu dam olish uzoqqa choʻzilmay, besh-oʻn kun davom etgan, xolos. Ulugʻ shoir “Xamsa” gʻoyalari, obrazlari bilan yashar, ular unga tinchlik bermas, uni ishga, yangi ijodiy parvozlarga undar, sanʼatkorga tom maʼnodagi dam olish boʻlishi mumkin emas edi. Bir oz hordiq zarurligi haqidagi boshqalarning maslahati ham shoirning qulogʻiga kirmasdan, u yana ishga kirishadi va “Xamsa”ning toʻrtinchi dostonini qogʻozga tushira boshlaydi. “Sabʼai sayyor”da shoh Bahrom obrazi orqali davrining podshosi Sulton Husaynni koʻrsa, bu asardagi hikoyalarda oʻzbek xalq maʼnaviy boyligini, uning orzu-umidlarini kuylaydi. “Saddi Iskandariy” dostonida ulugʻ shoirning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, adolat, maʼrifat bilan bogʻliq tushunchalari oʻzining eng mukammal tasvirini topishi kerak edi. Navoiy butun hayoti davomida shunday qarash va gʻoyalar bilan yashagan edi. Uning uchun ushbu gʻoyalarni sheʼriy-badiiy gavdalantirish u qilish lozim boʻlgan ishlarning eng muqimi va asosiy maqsadi edi.

Xulosa sifatida taʼkidlash joizki, Sharq adabiyotida Xamsa anʼansi oʻzining murakkab janr-poetik tuzilishi, falsafiy-axloqiy mazmuni va epik-lirik sintezga asoslangan yuksak badiiy tamoyillari bilan alohida ilmiy-estetik hodisa hisoblanadi. Bu anʼananing asosiy mezonlari Nizomiy Ganjaviy tomonidan shakllantirilgan boʻlib, keyinchalik Xusrav Dehlaviy ijodida funksional jihatdan takomillashgan. Alisher Navoiy esa mazkur anʼanani yuqori darajada milliyashtirib, oʻzbek mumtoz adabiyotining estetik mezonlari, maʼnaviy-ruhiy qadriyatlari va tasavvufiy tafakkur paradigmasi bilan boyitgan. Navoiy Xamsasi kompozitsion barqarorlikni saqlagan

holda, unda ijtimoiy-siyosiy qarashlarni, individual inson ruhiyati tahlilini, adolat, muhabbat, ilm va komil inson konsepsiyasini o‘ziga xos badiiy talqin orqali ifodalagan. Shu bilan birga, muallif lisoniy-uslubiy jihatdan ham novatorlik ko‘rsatib, turkiy tilning badiiy imkoniyatlarini serqirra darajada namoyon etgan. Xususan, obrazlar sistemasi, psixologizm, didaktik-irfoniy qatlamlarning uyg‘unligi, ramziy-metaforik struktura, ritmik-aruz me‘yorlari va poetik sintaksisdagi mahorati Navoiy Xamsasining o‘ziga xosligini belgilaydi. Demak, Alisher Navoiy Xamsasi nafaqat mavjud adabiy maktabni davom ettirgan, balki uni yangi bosqichga ko‘targan, turkiy adabiy tafakkur tarixida universal ma‘naviy-intellektual manbaa vazifasini bajargan nodir asardir. Bu bilan Navoiy nafaqat Xamsachilik an‘anasi doirasini kengaytirgan, balki jahon adabiy merosida o‘ziga xos ijodiy fenomen darajasiga erishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nizomiy Ganjaviy. Xamsa. – Tehron: Donyo nashriyoti, 1970.-56-78-b.
2. Qayumov A. Navoiy dostonlari poetikasi. –Toshkent: Fan , 1982.- 11-64-b.
3. Xo‘jayev T. Navoiy “Xamsa”si: obraz , badiiyat, mohiyat. Toshkent: “Zilol buloq” nashriyoti 2023.- 191-b.
4. Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent: “G‘afur G‘ulom” nashriyoti, 1991.
5. Aburahmon Jomiy. Haft avrang. – Dushanbe: Irfon, 1985.-46-70-b.
6. Zarifov H. Alisher Navoiy va uning adabiy maktabi.–Toshkent: Fan,1970.-25-44-b.
7. Sodiqov M. Navoiy dostonlarida milliylik va insonparvarlik masalalari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2015.- 89-103-b.